



THE CURRENT STATE AND PROSPECTS OF UZBEKISTAN–U.S. COOPERATION

Habibullo Sadibaqosev

Associate Professor, Doctor of Philosophical Sciences (DSc)

International Islamic Academy of Uzbekistan

Email: h.sadibaqosev@iiau.uz

Uzbekistan, Tashkent

ABOUT ARTICLE

Key words: “C5+1”, USAID, “B5+1”, World Trade Organization, “Greater Central Asia” concept, “Eurasian Research Center” Future Leaders Exchange Program.

Received: 30.05.25

Accepted: 01.06.25

Published: 03.06.25

Abstract: Cooperation between Uzbekistan and the United States of America is expanding, and strategic partnership relations are reaching a high level. Relations between Tashkent and Washington encompass a wide range of issues. Both sides strive to develop economic relations by expanding mutual security, science and technology, trade, and investment. There is also ongoing dialogue on issues of good governance, such as the rule of law, guarantees of civil and political rights. This article highlights the key areas of bilateral relations between Tashkent and Washington, such as domestic political and economic transformations, cooperation in security and humanitarian relations, and active policy within the “C5+1” framework.

O‘ZBEKISTON-AQSH HAMKORLIGINING BUGUNGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI

Habibullo Sadibaqosev

O‘zbekiston Xalqaro islomshunoslik

akademiyasi dotsenti, s.f.d. (DSc)

e-mail: h.sadibaqosev@iiau.uz

O‘zbekiston, Toshkent

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: “C5+1”, USAID, “B5+1”, Jahon savdo tashkiloti, “Katta Markaziy Osiyo” konsepsiyasi, “Yevroosiyo tadqiqot markazi”, Kelajakdagi yetakchilar almashinuv dasturi.

Annotatsiya: Bugungi kunda O‘zbekiston – Amerika Qo‘shma Shtatlari hamkorlik munosabatlari keng ko‘lamli bo‘lib, strategik sheriklik aloqalari yuksak darajaga ko‘tarilmoqda. Toshkent va Vashington o‘rtasida turli masalalarni o‘z ichiga olgan munosabatlar mavjud. Ikki tomon o‘zaro

umumiy xavfsizlik, ilm-fan va texnologiya, savdo va sarmoyani kengaytirgan holda siyosiy-iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirishga harakat qilmoqda. Shuningdek, qonun ustuvorligi, fuqarolik va siyosiy huquqlarni kafolatlash kabi samarali boshqaruv masalalarida ham doimiy muloqot mavjud. Ushbu maqolada Toshkent va Vashington o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarning asosiy yo'nalishlari, masalan, ichki siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar, xavfsizlik va gumanitar munosabatlar sohasidagi hamkorlik, "C5+1" doirasida faol siyosat olib borishi ko'rsatilgan.

РОЛЬ СОВРЕМЕННЫХ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ФОРМИРОВАНИИ КУЛЬТУРЫ ПАМЯТИ МОЛОДЕЖИ

Хабибулло Садибақосев

Доцент, доктор философских наук (DSc)

Международная исламская академия Узбекистана

E-mail: h.sadibaqosev@iiau.uz

Узбекистан, Тошкент

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: «C5+1», USAID, «B5+1», Всемирная торговая организация, Концепция «Большая Центральная Азия», «Евразийский исследовательский центр», Программа обмена будущими лидерами.

Аннотация: Сегодня отношения сотрудничества между Узбекистаном и Соединенными Штатами Америки приобретают широкий масштаб, а отношения стратегического партнерства выходят на высокий уровень. Между Ташкентом и Вашингтоном существуют отношения, охватывающие широкий круг вопросов. Обе стороны стремятся развивать экономические отношения, расширяя общую безопасность, науку и технологии, торговлю и инвестиции. Также существует постоянный диалог по вопросам хорошего управления, таким как верховенство закона, гарантии гражданских и политических прав. В этой статье показаны основные направления двусторонних отношений между Ташкентом и Вашингтоном, такие как внутренняя политическая и экономическая трансформация, сотрудничество в области безопасности и гуманитарных отношений, а также активная политика в рамках «C5+1».

Kirish. Qo'shma Shtatlar O'zbekiston Respublikasini mustaqil davlat sifatida tan olgan birinchi davlatlardan biridir. Amerika Qo'shma Shtatlari bilan hamkorlik O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib, bu "O'zbekiston Respublikasining tashqi siyosati konsepsiyasi"da ham o'z ifodasini topgan. Hozirgi O'zbekiston-Amerika munosabatlari ko'p qirrali, uzoq muddatli va o'zaro manfaatdorlik xususiyatiga ega. Bir qator xalqaro va mintaqaviy muammolar yuzasidan tomonlarning pozitsiyasi o'xshash. Siyosiy va iqtisodiy sohalaridagi hamkorlikka, insoniy jihatlariga, Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlashga, shuningdek, terrorizm va ekstremizm, narkotik moddalarning noqonuniy aylanishi, ommaviy qurollarning tarqalishi kabi global tahdid va muammolarga qarshi kurashishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ikki davlat o'rtasida 1992-yil 19-fevralda diplomatik munosabatlar o'rnatilgan. O'tgan yillar davomida konstruktiv hamkorlikning salmoqli salohiyati va tajribasi to'plandi. Barcha yo'nalishlarda sifat jihatidan yangi va o'zaro manfaatli munosabatlar o'rnatishni oldindan belgilab bergan O'zbekiston-Amerika munosabatlarining asosiy hujjati 2002-yil mart oyida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi bilan Amerika Qo'shma Shtatlari o'rtasida strategik sheriklik va hamkorlik asoslari to'g'risidagi deklaratsiyadir. O'zbekistonning Qo'shma Shtatlar bilan munosabatlari bugungi kunda yangi davrga, sifat jihatidan yangi bosqichga qadam qo'ymoqda. Yaqin yillar ichida Toshkent va Vashington o'rtasidagi har tomonlama strategik munosabatlar jadal va barqaror tus oldi. Ikki davlat rahbarlarining sa'y-harakatlari va uchrashuvlari natijasida iqtisodiy, ta'lim, xavfsizlik kabi sohalaridagi hamkorlik aloqalari yanada mustahkamlanib, yangi bosqichga ko'tarilib bormoqda.

Tadqiqot usullari: Maqolada olimlar va tadqiqotchilar tadqiqot ishlariga, shuningdek, xorijiy ma'lumotlar, davriy nashrlar va internet manbalariga alohida e'tibor qaratildi, shuningdek, tarixiylik, event, kontent hamda qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Natijalar: O'zbekiston va AQSh o'rtasidagi turli sohalaridagi zamonaviy hamkorlik rivoji turli tadqiqotchilarning ishlarida ko'rib chiqilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, so'nggi bir necha yil ichida ikki tomonlama tovar ayirboshlash hajmi 2 barobarga oshdi, mamlakatimizga AQSh investitsiyalarining umumiy hajmi 1 milliard dollardan oshdi. Bu yo'nalishda Qo'shma Shtatlar mintaqaga davlat darajasida 9 milliard dollarlik to'g'ridan-to'g'ri yordam, 31 milliard dollarlik xususiy sarmoya va AQSh ishtirokidagi xalqaro tuzilmalar (Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va boshqa bir qator tashkilotlar) tomonidan kreditlar va texnik yordam ko'rinishida 50 milliard dollardan ortiq sarmoya kiritdi. Mintaqadagi o'zgarishlarni jadallashtirish maqsadida Qo'shma Shtatlar O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lish jarayonini tezlashtirishga ham ko'maklashmoqda. Shu bilan birga, AQSh Moliya vazirligi tomonidan moliyalashtiriladigan amerikalik ekspertlar Kapital bozorini rivojlantirish

agentligi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi bilan shaffoflikni oshirish va investitsiyalarni jalb qilish uchun iqtisodiy boshqaruvni modernizatsiya qilish maqsadida ushbu idoralarning islohotlarini qo'llab-quvvatlash ustida ishlamoqda. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi tomonidan AQSh investitsiyalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha maxsus ofis ochilishi bunday hamkorlikning yakuni bo'ldi. 2017-yildan bugungi kunga qadar ikki mamlakatning iqtisodiy yaqinlashuvi yuqori marralarga yetdi. Davlat rahbarlarining iqtisodiy hamkorlikda maksimal imkoniyatga erishishga bo'lgan qat'iyati har ikki mamlakatda ishsizlikning kamayishiga, savdo-sotiqning o'sishiga, ishlab chiqarishning kengayishiga yordam berdi. O'zbekiston amerikalik sarmoyadorlar uchun tobora qulay sharoitlar yaratmoqda, biznes yuritish uchun respublika bozoriga Amerika kompaniyalarini olib kirish uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Shuningdek, to'qimachilik, kimyo, moliya, turizm, sog'liqni saqlash, raqamli texnologiyalar sohalarida yaqindan hamkorlik qilish imkoniyatlarini ko'proq o'rganish bo'yicha samarali ishlar olib borilmoqda.

Afg'oniston omili. Ta'kidlash joizki, hozirgi kunda Afg'onistondagi beqaror vaziyatni yumshatish, mamlakatdagi etnik, diniy muammolarni bartaraf etishda O'zbekiston olib borayotgan tashqi siyosati e'tirofga molik. Yillar davomida afg'on muammosini hal etishga doir tashkil etilgan siyosiy tashabbuslar salmog'i, "Tolibon" hokimiyatga kelgunicha bo'lgan davrda ular bilan o'rnatilgan tegishli aloqalar hamda Afg'oniston muammosiga daxldor tomonlar bilan o'tkazilayotgan faol muloqotlar alohida o'rin egallaydi. Ayniqsa, Afg'onistonga qo'shni davlatlarning milliy xavfsizligi, Markaziy va Janubiy Osiyo mintaqaviy xavfsizligi hamda xalqaro xavfsizlikni mustahkamlashda O'zbekistonning ishtirokini jiddiy e'tiborga olish maqsadga muvofiqdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning 2018-yil may oyidagi AQShga tashrifi chog'ida tomonlar Afg'onistondagi vaziyat, jumladan ekstremizm va terrorizmga, umumiy global tahdidlarga qarshi kurash sohasida hamkorlikni yanada kuchaytirish sohasida o'z sobitliklarini bayon qilgan. Jumladan, Prezident Sh.Mirziyoyev Afg'onistonda tinchlik va barqarorlikka erishishga hissa qo'shayotgan Shimoliy ta'minot tarmog'ini qo'llab-quvvatlashda davom etishini tasdiqladi. O'zbekiston va AQSh Afg'oniston bilan chegaralar xavfsizligini ta'minlash hamda giyohvandlik vositalari noqonuniy muomalasining oldini olishda yaqindan hamkorlik qilishlari e'tirof etildi.

AQShning sobiq Davlat kotibi Maykl Pompeoning 2020-yil 3-fevralda O'zbekistonga tashrifini ikki mamlakat o'rtasidagi o'ziga xos hodisalardan deb hisoblash mumkin. Ushbu tashrif tomonlarga strategik hamkorlikning yangi bosqichi uchun zamin yaratdi. Tashrif jarayonida AQSh Davlat departamenti tomonidan tayyorlangan 2019-2025-yillarda Markaziy

Osiyo uchun yangi strategiya e'lon qilindi. Mazkur strategiyaning asosiy tamoyillari jumlasiga: mintaqa mamlakatlari mustaqilligini mustahkamlash; Afg'onistonni Markaziy Osiyo bilan birlashtirish; inson huquqlari va hududga investitsiyalar olib kirish sohasidagi islohotlarga ko'maklashish kiradi. Ushbu strategiya o'z mohiyatiga ko'ra, Qo'shma Shtatlar Afg'onistonni Markaziy Osiyoning tarkibiy qismi sifatida ko'rishi hamda AQShlik olim Fredirik Starr tomonidan ishlab chiqilgan "Katta Markaziy Osiyo" konsepsiyasini keyinchalik ham davom ettirishni maqsad qilganidan dalolat beradi. AQSh va O'zbekiston hamkorligida Afg'onistondagi vaziyatni iziga tushirish masalalari, shuningdek bu borada ko'p tomonlama hamkorlikka jiddiy e'tibor qaratib kelinadi. 2020-yil iyun oyi oxirida AQShning Afg'oniston bo'yicha maxsus vakili Afg'onistonda kelgusidagi tinchlik jarayoni masalalarini muhokama qilish uchun Zalmay Halilzod Doxa, Islomobod va Toshkentga tashrif buyurdi. 2020-yilning 30-iyunida "C5+1" shaklidagi muloqot doiralarida ham aynan shu masalalar ko'rib chiqildi. "C5+1" guruhiga AQSh hukumati, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston va O'zbekiston Respublikalari hukumatlari a'zo ekanligini ta'kidlash joiz. Ushbu platformaning tashkil etilganligi Markaziy Osiyo mintaqasi va Qo'shma Shtatlarning xavfsizlik va boshqa sohalaridagi hamkorligini yangi bosqichga olib chiqmoqda.

Muhokama: Qo'shma Shtatlar Markaziy Osiyo uchun alohida C5+1 formatini ishlab chiqqan bo'lib, unda tashqi ishlar mahkamalari rahbarlari tomonlar o'rtasida izchil hamkorlikni chuqurlashtirish, mintaqaviy xavfsizlik, Markaziy Osiyo transport imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Ushbu formatning ilk uchrashuvi 2015-yilda Samarqandda bo'lib o'tgani esa AQSh mintaqada eng asosiy hamkor sifatida O'zbekistonga umid bog'layotganligini ko'rsatib berdi. Shu paytdan boshlab, olti davlat tashqi ishlari rahbarlari doimiy muloqot o'tkazib kelmoqda. C5+1 formatining 2022-yilda o'tkazilgan forum doirasida uchta ishchi guruh: iqtisodiyot, energetika va atrof-muhitni muhofaza qilish, shuningdek, xavfsizlikni muvofiqlashtiruvchi kotibiyat tuzildi. Bir qator xorijiy tahlil markazlari "C5+1" formatining 2025-yilda tomonlar quyidagi bir qator yo'nalishlarda hamkorlikni kengaytirishi mumkinligini tahlil qilishmoqda. Jumladan, "Yevroosiyo tadqiqot markazi" yetakchi ilmiy hodimi E.Guseynovning tahlillariga ko'ra:

- muhim tarmoqlarni mustahkamlash: yuqori texnologik va "yashil" loyihalar uchun zarur bo'lgan litiy va uran konlarini o'zlashtirish bo'yicha qo'shma loyihalarni davom ettirish;
- "yashil" kun tartibiga tizimli yondashuv: qayta tiklanadigan energetikani rivojlantirish va ekologik texnologiyalarni joriy etish uchun moliyaviy vositalar va grant dasturlarini yaratish.

- oliy darajadagi muntazam uchrashuvlar: prezidentlik sammitlarini institutsionallashtirish va “B5+1” doirasida biznes hamjamiyatining doimiy muloqotini yo‘lga qo‘yish orqali formatga uzoq muddatli dinamikani kiritish;

- fuqarolik jamiyati va ta’lim dasturlarini qo‘llab-quvvatlash, talabalar va mutaxassislar almashinuvini kengaytirish, shuningdek, davlat boshqaruvining shaffofligi va samaradorligini oshirish dasturlarini ishlab chiqish . Darhaqiqat, bugungi kunda Toshkent va Vashington o‘rtasida yuqori texnologik va “yashil” loyihalar borasida hamkorlikni yanada rivojlantirishga katta urg‘u berilmoqda. Shuningdek, ta’lim dasturlarini qo‘llab-quvvatlash borasida ham sezilarli ishlar amalga oshirilmoqda. Masalan, kelajakdagi yetakchilar almashinuv dasturi (FLEX) AQSh Davlat departamenti Ta’lim va madaniyat masalalari byurosining madaniy almashinuv dasturi O‘zbekiston bo‘ylab talabalarga AQSh o‘rta maktabida o‘qish va bir o‘quv yili davomida Amerika mezbon oilasida yashash imkoniyatini beradi . Hozirgi kunda shu kabi loyihalar bo‘yicha hamkorlik yo‘lga qo‘yilmoqda.

Muammolar. Qayd etish kerakki, O‘zbekiston va Qo‘shma Shtatlar o‘rtasidagi munosabatlarga ta’sir etgan bir nechta omillar mavjud:

birinchidan, har ikki mamlakatning geografik joylashuvi aloqalarni rivojiga salbiy ta’sir o‘tkazmasdan qolmaydi. Boisi, 11 ming km dan ortiq masofa mamlakatlar o‘rtasida eksport-import uchun uzoq vaqt va katta xarajat talab etadi;

ikkinchidan, olim M.Rahimovning qayd etganidek, “Mintaqa mamlakatlari va AQSh o‘rtasidagi munosabatlarda ba’zi kelishmovchiliklar va qiyinchiliklar mavjud. Xususan, AQSh Kongressi va Davlat departamentida davlatlarning siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining turli jihatlari bo‘yicha tanqidiy fikrlar bildirildi. O‘z navbatida, Markaziy Osiyo davlatlari AQShning tashqi siyosiy yondashuvlarida, ayniqsa, inson huquqlari masalalarida ikki tomonlama standartlar muammosidan xavotir bildirdilar” ;

uchinchidan, D.Trampning Qo‘shma Shtatlar Prezidentligiga qayta saylanganidan so‘ng, AQSh xalqaro taraqqiyot agentligi (USAID)ni faoliyati qayta ko‘rib chiqilishi, dunyo bo‘ylab turli sohalarni rivojlantirishga ajratilgan moliyaviy yordamni to‘xtatilishi haqida ma’lumotlar chiqdi. O‘z navbatida, O‘zbekiston mustaqillikka erishganidan beri USAID turli sohalarga jami 500 million dollarga yaqin mablag‘ ajratgan. 2023-yilda O‘zbekistondagi ijtimoiy va iqtisodiy loyihalarni qo‘llab-quvvatlash uchun USAID tomonidan 8 million dollar yo‘naltirilgan ligini hisobga olsak, bu ham o‘zaro munosabatlarga ta’sir o‘tkazishi mumkin. Ammo, so‘ngi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilgan qator ijobiy islohotlar natijasida yurtimizning xalqaro arenalarda, global tashkilotlardagi nufuzi va imiji sezilarli darajada ortdi. Misol uchun, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Xalqaro Mehnat Tashkilotining yangi xulosalariga ko‘ra, tizimli

majburiy mehnat va tizimli bolalar mehnatiga barham bergan. Bu taraqqiyot o'zbek paxtasiga nisbatan xalqaro boykotning tugatilishiga olib keldi. Bu esa, Qo'shma Shtatlar bilan aloqalarda ham o'z aksini topmoqda. Shuningdek, o'zgarib borayotgan xalqaro xavfsizlik tizimida O'zbekistonning xalqaro siyosat va xalqaro xavfsizlik borasida o'zining mustaqil pozitsiyasiga ega bo'lishi har jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi. Bu, ayniqsa, xalqaro xavfsizlikka yondashuvlarda AQSh ilgari surayotgan dunyo tartiboti va Xitoy ta'kidlayotgan dunyo birligi g'oyalarining ta'siriga tushib qolmaslik va ikki super kuch davlatlari bilan muvozanatlangan va manfaatdorlikka asoslangan tashqi siyosat olib borish imkoniyatini beradi.

Istiqbol. Amerika tahlil markazlari ko'pincha O'zbekistonni mintaqada kelajakdagi koalitsiyaning o'zagi sifatida ko'radi. Qolaversa, Vashington uchun O'zbekiston bilan aloqalar C5+1 formati, Afg'oniston masalasi, Rossiya, Xitoy kabi yetakchi mamlakatlar bilan raqobat fonida juda muhim ahamiyat kasb etganligi bois yaqin istiqbolda yanada rivojlanadi. Bunga quyidagi omillarni misol qilib keltirib o'tish mumkin:

- O'zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasida demografik jihatdan eng ko'p aholiga hamda mintaqadagi barcha davlatlar va Afg'oniston bilan bevosita chegara ega ekanligi;
- Mintaqa mamlakatlaridan farqli o'laroq, O'zbekiston KXSHT yoki YOII a'zosi emasligi;
- O'zbekiston Markaziy Osiyoga yaqin joylashgan Xitoy va Rossiya kabi yirik mamlakatlar bilan to'g'ridan-to'g'ri chegaraga ega emasligi;
- O'zbekistonning demografik potentsiali Markaziy Osiyo bozorini harakatlantiruvchi kuchi sifatida AQSh sarmoyalari uchun keng imkoniyatlar ochadi.

Xulosa. Mintaqaning iqtisodiy integratsiyasi, Afg'onistonni qayta qurish, Markaziy va Janubiy Osiyoda transport-tranzit va energetika tarmog'ini barpo etish rejalari tufayli alohida ahamiyat kasb etgan o'zaro manfaatli siyosiy-iqtisodiy sheriklik AQSh-O'zbekiston munosabatlarini rivojlantirishning muhim yo'nalishi hisoblanadi. Qolaversa, ikki tomonlama hamkorlikning istiqboli bevosita O'zbekistonning kelgusida olib boradigan tashqi va ichki siyosati bilan uzviy bog'liq bo'ladi. Boisi, Qo'shma Shtatlarning "C5+1" formatining ham samarali faoliyat ko'rsatishda O'zbekiston muhim rol o'ynaydi. AQSh Markaziy Osiyoda keng ko'lamli strategiyalarini olib borishda shubhasiz O'zbekistonga tayanadi. Bu O'zbekistonning AQSh uchun salohiyatli va istiqbolli sherik bo'lishini ta'minlaydi. O'zbekiston uchun AQSh bilan hamkorlik suverenitet va hududiy yaxlitligini mustahkamlash, tinchlik va barqarorligini ta'minlash, savdo va texnologik rivojlanishini ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etib qoladi. O'zbekiston ilgari surayotgan Markaziy Osiyo siyosatini samarali amalga oshirishda AQShning qo'llab-quvvatlovi mintaqaviy loyihalarni ro'yobga chiqishida katta ta'sir ko'rsatadi. Markaziy

Osiyoning global raqobatda muvozanatlashgan tashqi siyosatini olib borishda AQSh muhim o‘rin tutib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Гусейнов Эльданиз. Формат "C5+1" спустя 10 лет: от совместной безопасности к новым возможностям для бизнеса. <https://cronos.asia/politika/format-c5-1-spustya-10-let-ot-sovmestnoj-bezopasnosti-k-novym-vozmozhnostyam-dlya-biznesa>
2. Касимов М. АҚШ ва Покистон ўртасидаги хавфсизлик масалаларига Афғонистон омилининг таъсири Сиёсий фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертацияси. 2024.
3. Рахимов М. Приоритеты внешней политики Республики Узбекистан. Центральная Азия в глобальном мире. 2020. – С. 91. DOI: 10.20542/2073-4786-2020-1-111-123
4. США опубликовали новую стратегию по Центральной Азии на 2019-2025 годы Gazeta.uz 06.02.20
5. Bo‘ronov S. O‘zbekiston geosiyosati: O‘quv qo‘llanma.– T.: “EFFECT-D”, 2021.
6. Exchange Programs. <https://uz.usembassy.gov/education-culture/exchange-programs/>
7. Exchange Programs. <https://uz.usembassy.gov/education-culture/exchange-programs/> USAID’ning tugatilishi O‘zbekistonga qanday ta’sir qiladi? <https://uz24.uz/uz/articles/usaidd-25-2-3>
8. O‘zbekiston va Amerika Qo‘shma Shtatlari: strategik sheriklikning yangi davri. <https://president.uz/oz/lists/view/1719>
9. Political relations. <https://uzbekistan.org/political-relations/>
10. Sadibaqosev H. Zamonaviy xalqaro xavfsizlik tizimida AQSh va Xitoyning o‘rni. Siyosiy fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. 2024.
11. Uzbek cotton is free from systemic child labour and forced labour. <https://www.ilo.org/resource/news/uzbek-cotton-free-systemic-child-labour-and-forced-labour>